

## TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA UNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

**Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti  
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

[zulfiyaolimova98@gmail.com](mailto:zulfiyaolimova98@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12170928>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va uni amaliyotga tatbiq etish haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, ta'lim tizimida raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyaning afzalliklari, shaxsiy texnologiya, virtual haqiqat haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, internet, ta'limda raqamli texnologiya, bulutli texnologiya, narsalar interneti, raqamli dunyo, blokcheyn, raqamli axborot, kengaytirilgan haqiqat, texnik jihoz, innovatsiyalar.

### EFFECTIVE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ORGANIZING HISTORY LESSONS AND ITS APPLICATION IN PRACTICE

**Abstract.** This article provides detailed information about the effective use of digital technologies and its implementation in the organization of history lessons. Digital technology, cloud technology, use of digital technology in the educational system, advantages of digital technology, personal technology, virtual reality are discussed.

**Keywords:** digital technology, internet, digital technology in education, cloud technology, internet of things, digital world, blockchain, digital information, augmented reality, technical equipment, innovation.

### ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИСТОРИИ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРАКТИКЕ

**Аннотация.** В данной статье представлена подробная информация об эффективном использовании цифровых технологий и их внедрении в организацию уроков истории. Обсуждаются цифровые технологии, облачные технологии, использование цифровых технологий в системе образования, преимущества цифровых технологий, персональные технологии, виртуальная реальность.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, интернет, цифровые технологии в образовании, облачные технологии, интернет вещей, цифровой мир, блокчейн, цифровая информация, дополненная реальность, техническое оснащение, инновации.

### KIRISH

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada keng miqyosda qo'llanilmoqda. Shu o'rinda raqamli texnologiyalardan tarix darslarida foydalanishga ham alohida e'tibor berishimiz zarur. Pedagoglar oldingi ta'lim dasturlarini an'anaviy usulda ya'ni ma'ruza shaklida katta hajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali olib borilgan.

Bu esa ta'lim sifatini u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarish ta'limni raqamlashtirish jarayonida noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari, kollej, akademik litseylar va oily ta'lim muassasalarida tarix darslarini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Chunki bu kabi zamonaviy texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish inson hayotini tubdan o'zgartirib, uning faliyati sifatini oshirishiga keng yo'l ochadi. Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti, jamiyatimizning turli qatlamlari, shu jumladan yoshlarning fikrlash darajasining kengayishiga va axborot olish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda raqamli texnologiyalar orqali o'quvchi va talabalarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, uni rivojlantirish, tarixiy ong va tafakkurni shakllantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega, yetuk yoshlarni tarbiyalash jarayonlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratimoqda. Bugungi kun ta'lim oluvchilari yoshligidan boshlab, fan – texnika yutuqlari, raqamli texnologiyalar bilan hamohang tarzda ulg'ayishmoqda. Shuning uchun ham bu fanga qiziquvchi talablar o'z ustozlaridan ham fanni zamonaviy texnika yutuqlaridan, shu jumladan raqamli texnologiya vositalaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etishlarini ma'qul ko'rishadi.

Umuman olganda hozirgi globallashuv sharoitida barcha soha mutaxassisleri ta'lim berayotgan fanini zamonaviy ilg'or texnika vositalaridan va yangiliklaridan foydalangan holda darslarni tashkil etishlari zarur.

#### **MATERIALLAR VA USULLAR**

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida tarix fanini o'qitishda yuqorida aytib o'tilganidek raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish juda zarur. Albatta, savol tug'ilishi mumkin, tarix fani o'tgan davrni arxeologik manbalar, tarixiy asarlar, tarixiy obida va yodgorliklar, muzey eksponatlari, arxivlar va boshqa tarixiy faktlar yordamida o'rgansa, bu fanda raqamli texnologiya vositalaridan foydalanishning nima keragi bordeyosh mumkin. Biz aytmoqchimizki, aynan tarix fani ishqibozlarini ushbu fan yutuqlarini bugungi kun zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganish – ya'ni tarix fanini o'qitish, o'rganishni modernizatsiya qilish – ushbu fanda juda katta o'zgarish yasaydi. Masalan, birgina misol o'sha siz va biz tashrif buyuradigan milliy va tarix muzeylarimizdagi eksponatlarining 3D modelini yasash orqali brinchi navbatda biz jonsiz tarixni jonlantiramiz, ya'ni tiriltiramiz, bu tarix ishqibozlari, turistlar va ko'ngilli kishilarni jalb qilishning bir vositasi o'laroq, ushbu muzey va eksponatlarni jahonga mashhur qilishimiz mumkin.<sup>1</sup>

Tarix darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish quyidagilardan iborat: “raqamli arxivlar, onlayn taqdimotlar, ma'lumotlar vizualizatsiyasi, interaktiv xaritalar, vaqt jadvallari, audio fayllar va virtual olmlar tarixni foydalanuvchiga qulayroq qilish. So'nggi raqamli tarix loyihalari ijodkorlik, hamkorlik va texnik innovatsiyalar, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, korpus lingvistikasi, tarmoq tahlili, 3D modellashtirish va katta ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan”.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Shoyimov S. “Tarix fanda raqamli texnologiyalardan foydalanish yoxud raqamli texnologiya” maqolasi

<sup>2</sup> Mo'minov H., Kamolov M. Raqamli texnologiyalar va raqamli tarix. Andijon. 2023.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashadi. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimedialar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doskalar, proyektorlar bajarib beradi.

Ta'limda bunday texnologiyalar bilan dars mashg'ulotlarini olib boorish ta'lim sifatini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, televideniya orqali berib boriladigan onlayn darslarni ta'lim olishning bir turi desak bo'ladi. Raqamli ta'lim zonasi rivojlanishiga Wi-Fi lar, IT parklar ochilishi ham katta xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa boshqa innovatsiyalarga nisbatan tez sodir bo'lmoqda. Bor yo'g'i yigirma uch yil ichida axborot texnologiyalaridan foydalanayotgan odamlar qariyb 50% ga oshgan.

### **NATIJALAR**

Tarix fanida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

✓ Birinchidan fanning modernizatsiya qilinishi orqali fanning yana ham rivojlanishiga, bugungi kun talablariga javob berish hamda eng asosiysi, fanga qiziquvchilarning soni oshishiga, tarix o'qitish va o'rganishning sifati yanada oshishiga;

✓ Ikkinchidan, tarix fanida raqamli texnologiya vositalarini qo'llash natijasida fanga oid o'quv materiallar hajmining ortishi hamda ulardan tarix darslarida bimalol foydalana olish mumkinligi va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat o'rnatish natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda ularni samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

**Birinchidan**, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz kerak.

**Ikkinchidan**, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy ta'lim berish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'zida jamlay olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida amalda qo'llash.

**Uchinchidan**, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish.

**To'rtinchidan**, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi

mavzular yuzasidan o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

**Beshinchidan**, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

**Oltinchidan**, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printeridan foydalanish, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish kerak. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim bera olishimiz mumkin

### **XULOSA**

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu kabi texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish mamlakatda ta'lim tizimini yuqori darajada modernizatsiya qilishda katta ro'l o'ynaydi.

Tarix darslarini tashkil etishda shu va shu kabi turli xil zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar yangi mavzuni yanada oson tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim tizimini yaxshilanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **REFERENCES**

1. [https://koptelov.info/publikatsi/digital\\_technology](https://koptelov.info/publikatsi/digital_technology).
2. Bakiyeva, FR, Primqulova, AA, & Mirzahmedova, ND (2020) Zamonaviy ta'limning aqli va rivojlanishi.
3. Abdurahmanova. Shahnoza Abduhakimovna. (2022), RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH.
4. Abdurahmonova, S.A. (2018). O'zbekiston Respublikasi pedagogika oily o'quv yurtlarida multimedia texnologiyalari asosida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. [www.aurisverlag.de](http://www.aurisverlag.de).
5. Mamarajabov Adil Ekmurzaevich (2022). Axborot ta'lim muhitida bulutli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha talabalarning kompetentini shakllantirish. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi.
6. Bagbekova Laylo Kadirberganovna. (2022). ADDIE MODEL KOMPONENTLARIDAN ISHLAB CHIQISH OCHIQ ONLAYN KURS RAQAMLI TA'LIM RESURSLARNI O'RNI VA AHAMIYATI. Konferensiya zonasi,
7. Shoyimov S. "Tarix fanda raqamli texnologiyalardan foydalanish yoxud raqamli texnologiya" maqolasi
8. Mo'minov H., Kamolov M. Raqamli texnologiyalar va raqamli tarix. Andijon. 2023.